

Yangi bino qurishdan avval tuproqning unumdor qatlami sidirib olinishi kerak

“Tuproqni muhofaza qilish va uning unumdorligini oshirish to'g'risida”gi Qonun (O'RQ-903-son, 02.02.2024-y.) Prezident tomonidan imzolandi.

Qonun bilan **tuproqni muhofaza qilish** va uning **unumdorligini oshirish** sohasidagi asosiy prinsiplar, sohani davlat tomonidan tartibga solish, tuproq unumdorligini oshirish asoslari va tartibi belgilandi.

Qishloq xo'jaligi vazirligi tuproqni muhofaza qilish va uning unumdorligini oshirish sohasidagi yagona davlat siyosatini amalga oshiradi.

Yer egalari Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar institutidan o'ziga tegishli yer uchastkasidagi tuproqning sifatini baholash to'g'risida axborot olish huquqiga ega.

Yer egalari shaharsozlik faoliyatini, geologik qidiruvni va foydali qazilmalarni qazib olishni, shuningdek qishloq xo'jaligiga oid bo'lмаган boshqa faoliyatni amalga oshirishda tuproqning mavjud unumdor qatlamini **sidirib olishi va saqlashi shart**.

Sidirib olingan tuproqning unumdor qatlamini qurilish tashkilotlari hokimliklar tomonidan belgilangan joylarga saqlash uchun olib chiqadi.

Tuproqning unumdor qatlami sidirib olinmaganligi va saqlanmaganligi fakti aniqlanganda, yetkazilgan zararning o'rni **mahalliy byudjetga qoplanadi**. Mazkur pul mablag'laridan qishloq xo'jaligida foydalanilmayotgan sug'oriladigan yerlarni foydalanishga kiritish va yerkarning **meliorativ holatini** yaxshilash uchun foydalaniladi.

Tuproqni o'rganish **Qishloq xo'jaligi, Suv xo'jaligi, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirliklarining** vakolatlari tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladi.